



MONOLOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH.

Boyqulov Azamat Maxram o'g'li

*Jizzax viloyat Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi
azamatboyqulov223@gmail.com*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada asosan zaif eshituvchi o'quvchilarning monologik nutqini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ushbu sohada maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan inklyuziv ta'limning joriy etilishi, milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlar xususida so'z yuritiladi.*

***Tayanch so'zlar:** Nogiron bolalar, monologik nutq sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxasis, inklyuziv ta'lim, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish, maxsus pedagog.*

***Аннотация:** В данной статье рассмотрены разработки и внедрение в практику технологий развития монологической речи преимущественно слабослышащих учащихся, в этой области речь идет о внедрении инклюзивного образования в школах и дошкольных учреждениях, а также о национальных, организационных и методических реформах.*

***Базовые слова:** дети-инвалиды, монологическая речь здоровые дети, равноправие, возможность, ограниченность, специалист, инклюзивное образование, учитель, право, развитие, специальный педагог.*

***Annotation:** Development and implementation of technologies for the development of monological speech of mainly weak hearing students in this article, the introduction of inclusive education in schools and preschools in this area, National, organizational and methodological reforms are discussed.*

***Base words:** disabled children, monological speech healthy children, equality, opportunity, limitation, specialist, inclusive education, teacher, Law, Development, Special Educator.*

KIRISH. Istiqlol yillarida ta'lim tizimini isloh qilish, mazmungan takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Hukumat tomonidan ko'plab qonun, farmon, farmoyish va qarorlar qabul qilindiki, bularning barchasi ta'lim mazmunini jahon andozalariga tenglashtirishga qaratilgandir. Xususan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi Qonunning mazmuni, maqsad va vazifalari inson omiliga, yosh avlodning ijtimoiy faolligi, uning kuch-g'ayrati, tashabbuskorligi va qiziqishlariga mo'ljallangan. Yoshlarga bo'lgan bunday e'tibor yoshlarimizning albatta to'la qonli jamiyat a'zosi bo'lib rivojlanishlarini taminlaydi. Shu bilan birga mana shu avlodning to'laqonli a'zosi sifatida kar bolalar ham jamiyat rivojlanishida



o'z o'rniga egadir. Ularning tilni egallashi sog'lom tengdoshlariga nisbatan o'ziga xos kechadi. Bu o'ziga xoslik mazkur bolalarning nutqiy va umumiy rivojlanishiga ta'sir etadi. Ushbu cheklanganlik kar bolalarga ona tilini o'rgatishda maxsus pedagogik, psixologik yondashishni, xususan, tilga maxsus o'rgatishni tashkil qilishni talab qiladi. Eshitishning buzilishi aksariyat hollarda nutqsizlik, mazkur nuqson tufayli og'ir nutq buzilishlari yoki umumiy nutq rivojlanmasligiga olib keladi.

Kar o'quvchilarni og'zaki nutqqa o'rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har bir fonema kar bolada maxsus usullar bilan qo'shiladi. Saqlangan analizatorlar ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, o'qituvchi osenka oldi tovush talaffuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz qilishni boladan so'raydi. Avvalom bor yengil talaffuz etiluvchi tovushlar "p", "b", "m" qo'shiladi, so'ng bug'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi. Kar bolada og'zaki nutqni shakllantirishda ko'ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordamida bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o'z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so'ng to'g'rilaydi. Kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so'ng ko'ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo'lish kinestik sezgilar shunchalik differensiyalashgan bo'ladi. Bu sezgi turi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o'rin hisoblanadi.

Kar bolada umumiy rivojlanish bilan bog'liq holda nutqning shakllanishi ham o'ziga xos kechadi. Sog'lom bolada nutq shakllanishining ilk davridagi kabi, kar bolada ham ovoz, chiqarishlar sodir bo'ladi. Tug'ma kar bo'lgan bolalarda ham gu-gulash, yig'lash xususiyatlari bo'lib, bular xuddi sog'lom bolalardagidek tashqi yoki ichki muhitdan keladigan signallar—ochlik, tashnalik, sovuq, issiqqa bog'liq bo'ladi.

Kar bolada eshitish idrokining nuqsonliligi tufayli o'z-o'zidan tashqi muhit bilan bog'lanish vazifasini uning teri, ta'm, hid bilish, ko'rish orqali sezish imkoniyati bajara boshlaydi. Kar bola 3-4 oylik bo'lganda havo to'lqinlari (vibratsiya)ni sezishi kuzatila boshlaydi. Bunda kar bola havo to'lqinlarining tebranishi-vibratsiyani his qilishi orqali atrofdagilarni «eshitadi». qaysi tomondan



to'liqning kelishi bilan bog'liq holda ko'z qorachig'i, bosh harakatlarini amalga oshiradi.

Kar bolaning nuqsoni ko'pincha 6 oylik, ya'ni o'yinchoqlarga intilish, ulardan chiqayotgan ovozlarni farqlash, ovoz manbai tomonga qarashning sustligi yoki yo'qligidan aniqlanadi. Agar nuqson qanchalik erta aniqlanib, to'g'ri tashxis qo'yilib, kar bolaga e'tibor maxsus tashkil etilsa, nuqsonni bartaraf etish, bilinmaydigan holatga keltirish imkoniyati keng bo'ladi. Aksincha bo'lsa, ruhiy, jismoniy va ular bilan bog'liq holda aqliy rivojlanishi orqada qoladi, ya'ni bola ijtimoiy muhitdan cheklangan holda rivojlanadi.

Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki, bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni faollashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'liq buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6-8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3-6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4-6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1-3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Zaif eshitishi natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan - gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik;



tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish-o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bolalarda monologik nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bola nutqi monologik nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak. Bolalarning nutqini o'stirish, ular bilan muloqotda bo'lish, bola fikrlash tarzini rivojlantiradi. Bunda esa bolalarni monologik nutqqa o'rgatish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta rol o'ynaydi. Bola uchun esa bu qobiliyat bilish, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi. Shunday qilib, kar bolada og'zaki nutqni shakllantirish faqat o'qituvchi rahbarligida maxsus tashkil etilgan sharoitlarda amalga oshadi. Bu jarayon quyidagilarni ko'zda tutadi:

- Nutqiy nafasni shakllantirishni;
- Modullashtirilgan ovoz qo'yish ustida ishlashni;
- Talaffuzga o'rgatishni;
- Labdan o'qishni;
- Lug'at ishini;
- Grammatik tizimni shakllantirishni.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>

2.Turg'unboyeva Zulxumor Ibragimovna QDPI Inklyuziv ta'lim kafedrası o'qituvchisi Rustamova Feruzabonu Azizjon qizi QDPI surdopedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARNI NUTQIY SIFATLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI science promotion volume sep 2023

3.F.U.Qodirova, D.A.Po'latova " Inklyuziv ta'lim" Qo'qon-2023

4.Ismatullayeva Gulshoda Ergashevna, BOLALARDA MONOLOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences

5. Nematova Shirinoy Nizomiddinova Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCEZAIF ESHITUVCHI BOLALARNING OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARI VA BILIMLARINI O'ZIGA XOS TOMONLARI